

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882935>

Xasanov Murodullo Xolbobo o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik"
fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotning maqsadi bugungi global axborot va chegaralar osha iqtisodiy hayot asrini boshidan kechirayotgan dunyo ahli uchun FinTech- moliya texnologiyalarining o'рни, ushbu termin ostida yashiringan asl mohiyatni va uning tarixini o'rganish va ushbu tizmda muammolarni hal qilish masalalariga nazar tashlash orqali tahlil etishdir. Muallif ushbu maqolada 2006-yildan buyon insonlarning faol iste'moliga kirib kelgan FinTech nazariyasining evolutsiyasini tadqiq etadi. Uni soda va amaliy tilda tushuntirishga harakat qiladi. O'zbek huquqiy va moliyaviy terminologiyasida takrorlarlanishni boshlagan tizmda nizolarni hal qilish masalalariga oydinlik kiritadi.*

Kalit so'zlar: *arbitraj, aksioma, globallashuv, mediatsiya, kontingent, kontent, manipulatsiya, , FinTech, Ant Financial, AliPay, arbitration clause, provayder, drayver, ADR.*

ELECTRONIC GOVERNMENT AND ITS ROLE IN IMPROVING GOVERNMENT EFFICIENCY: THE EXAMPLE OF REFORMS IN UZBEKISTAN

Annotation : *The purpose of this research is to analyze the role of FinTech-financial technologies for the people of the today's world, who are experiencing the age of global information and economic life across borders, by studying the true essence hidden under this term and its history, and looking at the issues of solving problems in this system. In this article, the author explores the evolution of the theory of FinTech, which has entered the active consumption of people since 2006. He tries to explain it in simple and practical language. It clarifies the issues of dispute resolution in the system, which began to be repeated in the Uzbek legal and financial terminology.*

Key words: *arbitration, axiom, globalization, mediation, contingent, content, manipulation, , FinTech, Ant Financial, AliPay, arbitration clause, provider, driver, ADR.*

МЕХАНИЗМ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ (КОНФЛИКТОВ) В FIN TECH.

Аннотация: *Целью данного исследования является анализ роли FinTech-финансовых технологий для человечества, переживающую сегодняшнюю глобальную информационную и трансграничную экономическую жизнь, путем изучения истинной сущности, скрытой под этим термином и его историей, и*

рассмотрения вопросы решения задач в этой системе. В данной статье автор исследует эволюцию теории FinTech, которая вошла в активное потребление людей с 2006 года. Он пытается объяснить это простым и практичным языком. Уточняются вопросы разрешения споров в системе, которые стали повторяться в узбекской юридической и финансовой терминологии.

Ключевые слова: арбитраж, аксиома, глобализация, посредничество, контингент, контент, манипуляция, , FinTech, Ant Financial, AliPay, арбитражная оговорка, провайдер, драйвер, ADR.»

Moliyaviy texnologiyalar tushunchasi. Elektron axborot asriga tamoman kirib borayotgan bugungi dunyo uchun insonlarning ongiga ta'sir ko'rsatish, uni manipulatsiya qilish avvalgidek muammoli ish hisoblanmay qoldi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda yer kurrasining narigi burchagidagi ma'lumotlarni bilish uchun avvalgidek zamonlar kutishga hojat yo'q, Xorazmiy algortimini qo'llashning o'zi kifoyadir. Siz qo'lingizdagi elektron gadjet orqali Kamisu(sharqiy Yaponiya)dagi havodisni San-Fransisko(AQSHning eng g'arbiy shtatlaridan biri)da turib bo'lsada bir lahzada bila olasiz. O'zingizga maqbul bo'lgan mahsulotni olishni xohlaysizmi?! Aytaylik, u "Iphone" kompaniyasining yangi avlod smartfonlaridir, aytaylik, u "Cherry Holding" kompaniyasining JETOUR X70 avtomobillaridir. Balki bir necha yillar oldin bu mahsulotlarni uyingiz ostonasidan chiqmasdan turib sotib olish homhayol bo'lib tuyulganidir, ammo FinTech nazariyasining iste'moli natijasi o'laroq bu utopiyadan real hayotga transfer bo'ldi.

Masalan bank xizmatlari sohasini olaylik. Ma'lumki, an'anaviy bank operatsiyalari amalga oshirish jarayoni raqamli texnologiyalar hisobiga o'zgarib, mijozlar uchun qulayliklar ortmoqda. Misol uchun PayMe, Click kabi yohud har bir bankning o'ziga tegishli bo'lgan dasturlar(Anorbank, Davrbank) barchamizning mushkulimizni oson qilmoqda. Natijada biznesda pul muomalasi tezlashib, biznesning kengayishi va iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Turli xil elektron bank xizmatlari onlayn xarid qilish jarayonini soddalashtirishga xizmat qilmoqda. Ta'kidlash lozimki, bank xizmatlarini raqamlashtirish axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayanadi va moliyaviy xizmatlarning 24 soat mobaynida uzluksiz ko'rsatilishi, tezkor tarzda yetkazilishini ta'minlaydi. Shuningdek, bank xizmatlarini raqamlashtirish xodimlar tomonidan qo'lda bajariladigan operatsion faoliyatni sezilarli darajada qisqartiradi va bank mijozining vaqtini tejaydi.

Xo'sh ana endi FinTech nima degan masalani detallashtirish orqali oydinlik kiritib o'tamiz. "Fintech" - bu ommaviy axborot vositalarini va innovatsion doiralarni tobora integratsiya qilgan iboradir. Global dunyoda yashayotganimizga qaramay, atama haqida ko'pchilik, shu jumladan texnik bilimga ega va bilimli, ishbilarmon kishilarda ham muayyan shakllangan tasavvur bo'lmasligi tabiiy hol. Chunki bu atama faol iste'molga 2008-yilda yuz bergan Jahon Inqirozidan so'ng faol kirib kela boshladi.

Moliyaviy texnologiya (Fintech) - bu moliyaviy xizmatlarni yetkazib berish va ulardan foydalanishni takomillashtirish, avtomatlashtirishga mo'ljallangan yangi texnologiyani tasniflash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. Asosiysi, fintech kompaniyalar, tadbirkorlar va iste'molchilarga ularning moliyaviy faoliyati jarayonlari yohud o'z hayotini yaxshiroq boshqarishga yordam beradi. Bu maxsus dasturlar va smartfonlarga tobora ko'proq o'rnatiladigan algoritmlar yordamida amalga oshiriladi. Fintech so'zining o'zi ham to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "moliyaviy texnologiya" ning kombinatsiyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda Alibaba electron tijorat platformasidan foydalanmagan, hech bo'lmasa mazkur platformani yuklab olib, mahsulotlari bilan tanishib chiqmagan odam kamdan-kam topilsa kerak. Ushbu platformaning maxsus fililali bo'lib, u **Ant Financial** deb nomlanadi.

Xitoyning moliyaviy texnologiya va Alibaba guruhining filiali hisoblangan kompaniya 2014-yilda tashkil etilgan va bosh qarorgohi Xitoyning Xanchjou shahrida joylashgan. Kompaniya raqamli to'lovlar, kredit skoring, sug'urta va onlayn bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bir qator biznesni boshqaradi. Ant Financial o'zining mobil to'lov platformasi- **Alipay** bilan mashhur bo'lib, u dunyodagi eng yirik raqamli to'lov platformalaridan biridir. Alipay 1 milliarddan ortiq foydalanuvchiga ega va butun dunyo bo'ylab millionlab savdogarlarning tovarlari sotiladigan platforma- FinTech hisoblanadi. Platforma foydalanuvchilarga keng turdagi tovarlar va xizmatlar, jumladan, onlayn va oflayn xaridlar, to'lovlar va turli xil tranzaksiyalar(o'tkazmalar)ni amalga oshirish imkonini beradi.

Ya'ni Fintech an'anaviy bozor qonuniyatlarining buzuvchisi, bozor iqtisodiyotidagi yangi inqilob hisoblanadi. Keling, oddiy misol bilan ko'rib chiqamiz. Masalan, mahallangiz yohud ko'changizdagi ma'ishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi, aytaylik, savdo do'koni bir paytning o'zida qancha odamga xizmat ko'rsataoladi. Agar uning sig'imi 30 kvadrat metrni tashkil qilsa va sotuvchilar soni bir kishi bo'lsa, uning xizmat ko'rsatishi o'rtacha hisobda bir auditoriyaning o'zida 20-30 ta odamga bo'lishi mumkin. Bu ham bo'lsa xona sig'imi hajmida. Agar sotuvchi sonini hisobga olib aytadigan bo'lsak, juda katta navbat vujudga keladi. Biznesga kirib kelgan odamning asosiy maqsadi esa yaxshi daromad topish hisoblanadi. Sig'imi va xizmat ko'rsattishi bu darajada bo'lgan do'konning foydasi qay holatda bo'lishi mumkin?! Agar mazkur savdo do'koni o'z foydasini ko'paytirmoqchi bo'lsa, uning oldida ikkita katta masala turadi. Birinchisi do'kon hajmini ya'ni hududini kengaytirish masalasi bo'lsa, yana biri xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini oshirish. Bularni amalga oshirgan taqdirda ham uning maydoni va xizmat ko'rsatish darajasi cheklangan bo'ladi. Mana shu holatda moliya texnologiya(fintech)laridan foydalanish vaziyat taqozosiga aylanadi. Chunki, ushbu maydondagi xizmat ko'rsatish va mahsulot joylashtirish hajmi cheklanmagan miqdorda bo'ladi. Shuningdek, chegara va viloyatlar osha sizga xaridorlarni boshlab keltiradi.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda atrofimizga e'tibor beradigan bo'lsak, deyarli katta savdo tarmog'iga ega bo'lgan kompaniyalar fintechdan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishmoqda. Korzinka.uz o'z platformasiga ega, Asaxiy.uz o'z platformasiga ega, PayMe, Visa, MasterCard o'nlab misollarni keltirish mumkin. Ant Financial ham mana shunday moliyaviy texnologiya sanalib, bugungi kunda Xitoy iqtisodiyotining drayverlaridan biri hisoblanadi. Demak, Fintech- texnologiya tomonidan taqdim etilgan afzalliklarning moliyaviy xizmatlar sohasida davlat moliyaviy operatsiyalarini osonlashtirish va barcha an'anaviy faoliyatni raqamli shaklga o'tkazish uchun qo'llaniladigan elektron tranzaksiya vositasi yoki mahsulot (tovar yoki xizmatlar)ni elektron vositalar va internet tarmog'i orqali savdo qiluvchi ikki tomon o'rtasida narx kelishuvi, miqdori, sifati, savdo ob'ektini yetkazib berish muddati, to'lov shartlari, sug'urta masalasini belgilab beruvchi innovatsion, tezkor bozor ekan.

Globallashgan dunyoda moliya texnologiyalar(FinTech)ning ahamiyati.

Butun dunyoda moliya sanoati va iqtisodiy sektordagilar o'z mijozlarining ehtiyojlarini qondirish uchun uzoq vaqtlardan buyon turli texnologiyalardan foydalanib kelmoqda. Biz yuqorida fikr yuritayotgan Fintech ham dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biridir, chunki u moliyaviy xizmatlarning an'anaviy shakllariga qaraganda xavfsizroq va qulayroqdir.

Business Research kompaniyasi fintech sanoati 2023-yilga kelib 158 014,3 million dollargacha o'sishini prognoz qilgan. Ushbu tadqiqotga ko'ra, birgina AQShda kredit uyushmalarining 60 foizi va banklarning 49 foizi fintech hamkorligimi bugungi bozorning zaruriy qismi deb hisoblaydi.

Nafaqat kredit sohasini, bundan tashqari, elektron tranzaksiyalar, tranzaksiya to'lov tizimlari, ham naqd, ham kredit yoki naqd pulsiz to'lov vositalari, masalan, elektron pul, internet banking, virtual to'lovlar va boshqalar bilan bog'liq masalalarda ham FinTech texnologiyalarining o'rni yuksalib bormoqda. Chunki siz o'z uyingiz ostonasidan chiqmasdan turib bir necha turdagi xizmatlardan foydalana olasiz.

Moliyaviy masalalar bo'yicha yumushi bo'lgan shaxs o'z smartfoni orqali xohlagan moliyaviy xizmatidan foydalana oladi. Ushbu texnologiya tomonidan taqdim etilgan turli qulayliklar tufayli insonlar qiyin va ko'p vaqt talab qiluvchi navbatlarda turishga majbur bo'lmaydilar. Sizga turli xizmat va mahsulotlar kerakmi yohud muayyan miqdordagi pul zarurmi, FinTech texnologiyalari orqali siz buni osonlik bilan onlayn tarzda amalga oshirolasiz. Taraqqiyotning bu ko'rinishi nafaqat mijozlarning, balki muayyan bir tadbirkorlik egalarining ham faoliyatining daromad drayveriga aylandi. Keling, kundalik hayotimizdan real misol orqali ko'rib chiqamiz.

M.Faktor loyihasi haqida deyarli barchamiz eshitgan, uning biznesga oid treyning videoyozuvlarini aqalli bir marta bo'lsa ham ko'rganmiz. Ma'lumki, albatta mazkur loyiha o'zining treyning mashg'ulotlarini o'tkazish uchun muayyan bir hududga ega hisoblanadi. Ya'ni uning ofisi mavjud va shu hududda biznes treyninglar olib boriladi. Ana endi ushbu markaz asoschilari o'z auditoriyalariga qancha o'rganuvchilarni jalb

qila olishadi. Yuqorida keltirgan misolimiz kabi xona hajmiga mutanosib ravishda albatta. Hop loyiha asoschilari boshqa hududdan ham ijarga joy oldi deylik, ammo unda ham auditoriya hajmi baribir cheklanadimi?! Yaqinda o'zining FinTech dasturiga asos solgan M.Faktor uni Eduon deb atadi. Ya'ni endi ta'sischi'larda cheklanmagan kontent va cheklanmagan auditoriya shakllandi. Onlayn treyninglar, onlayn mashg'ulotlar, onlayn kontentlar. Bular uchun shahar markazidan noturarjoy ijaraga polish shart emas. Bu loyihaga qiziquvchilar uchun ham tez va oson, arzon bo'ladi. Mamlakatning narigi g'arbiy mintaqasida yashovchi shaxs, shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib sharqiy mintaqasiga mashg'ulotlar uchun kelolmasligi mumkin, ammo u FinTech orqali dunyoning narigi chekkasidan turib bo'lsa ham o'zi qiziqqan sohani o'rgana oladi. Yoki dunyoning bu burchagidagi ilmiy maktab o'z ilmlarinin dunyoning narigi burchagidagi ilmi toliblarga ulasha oladi.

Ana endi yana bir savol tug'ilishi mumkin. FinTech investorlarga ham manfaat olib keloladimi? Albatta, haqli savol. Malalani yuqoridagi misolimiz diapazonida ko'rib chiqamiz. Aytalylik, Edu.On o'zining rivojlanish bosqichiga chiqib olgandan keyin, xuddi shunday platformada o'z ishini yrutimoqchi bo'lgan ko'ngillilar, investorlar, intellektlar albatta topiladi. Masalan biz aytgan platformada faqat businessga oid kontentlar mavjud bo'lsa, boshqa soha kimyo, biologiya, yurisperedunsiya sohasidagi mutaxassislar ham o'z kontentlarini olib kirishni xohlashlari mumkin. Sababi unda muayyan shakllangan katta auditoriya bor. Yohud investorlar shu sohadagi kontentlarni yaratishga pul, tikishi va foyda olishlari mumkin.

Ana endi boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, FinTech xizmatlarida ham muayyan bir kamchiliklar bor. Ularni ham ko'rib o'tish zarur hisoblanadi. Dastlabki kamchilik sifatida **ba'zi mamlakatlarda tartibga solish mexanizmning** yoqligini keltirish mumkin. Ya'ni ko'plab mamlakatlarning huquq tizimida kamchiliklar kuzatiladiki, odatiy bozor va FinTech bozozridagi munosabatlarni tartibga solishda bir xil qoidalar qo'llaniladi. Ba'zilarida esa mutlaq qo'llanilmaydi ham. Ya'ni qonunchilik yaratilmagan. Bu esa bir tomondan FinTech kompaniya va savdogarlar o'rtasida, ikkinchi tomondan savdogarlar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muayyan, tizimli muammolarni keltirib chiqaradi.

Keling bank xizmatlari misolida ushbu sohadagi tadqiqotimizni davom ettiramiz. Misol uchun FinTech tizimida kreditlash masalasini ko'rib chiqamiz. Fintech kreditlash biznesida qarz oluvchilar duch keladigan xavflar ko'proq bo'ladi, Negaki firibgarlik va suiiste'mollik ko'pincha bu tizmda sodir o'lib turadigan hodislardan biri hisoblanadi. Ko'p hollarda iste'molchilarning e'tirborsizligi natijasi o'laroq soxta FinTech kompaniyalari tomonidan ularni chuv tushirish holatlari kuzatilib turiladi. Ko'pincha qarz oluvchilarning huquqiy himoyasiga tahdid soladigan muhim muammo - bu noqonuniy fintech kreditning mavjudligi. Chunki noqonuniy fintech kreditlash kompaniyasini nazorat qilish anchayin qiyin muammo hisoblanadi. Buning justiga bu kompaniya chet elda faoliyat yuritsa, nazorat qilishning qiyinlik darajasi ikki baravarga oshadi yohud mutlaq yoqoladi. Odatda bunday kompaniyalar onlayn

ishlaydi va nomlarni o'zgartirishlari jjudam ham oson. Natijada, ushbu noqonuniy kompaniyalarning bloklangan taqdirda ham ularning faoliyati yana davom etmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Chunki kompaniya boshqa nom bilan o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin

Bundan tashqari ba'zi hollarda operatorlar tomonidan moliyaviy qiymatlik hisobiga foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini qonunlar va me'yoriy hujjatlarga zid ravishda, mijozlarning rozilgisiz uchinchi shaxslarga berish hollari kuzatiladi. Bu esa kelajakda shaxsiy ma'lumotlarini tarqatish tahdidlari, firibgarlik, tuhmat harakatlari va jinsiy zo'ravonlik holatlarini vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Fintechda biznes nizolarini hal qilish mexanizmlar. Katta iqtisodiy ko'rsatgichlarga va doimiy yashovchanlikka intilayotgan kompaniya nizolardan albatta qochishga harakat qiladi. Ammo shunday bo'lsada bulardan qochib qutilishning imkoni yo'q. Bu oziq zanjiri kabi tabiiy protsess hisoblanadi. J. Fulton aytgandikdek, biznes iqtisodiy bozor operatsiyalari jarayonida yuzaga keladigan nizolari ayirboshlash jarayonidir. Demak nizo bo'lishi bu normal holat. FinTech bank xizmatlari jarayonida fintech kredit provayderlari, kredit oluvchilardir (*qarz oluvchilar*), va kreditorlar subyek sifatida ishtirok etishini hisobga olsak, muammoga konseptual yechim topish zarurati yanda yuzaga chiqadi. Chunki bu kabi ishbilarmonlik nizolari biznes subyektlariga zarar yetkazadi.

Ko'pchilik uchun mustaqil, ratsional, ochiq va shaffof sudlar nizolarni hal qilishning birlamchi vositasi sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo ko'pchilik biznes vakillari bu kabi nizolni hal qilish vositalaridan qochishadi. Nega deganda har bir tadbirkor va har bir kompaniya uchun ijobiy reputatsiya kerak. Hech bir kompaniya o'z mijozlarini yo'qotishni xohlamaydi, hech bir mijoz ham ishonchli bo'lgan xizmat ko'rsatuvchisi xizmatlaridan mosuvo bo'lishni xush ko'rmaydi. Ammo sudlarda ko'p hollarda masalalar ochiq holda ko'riladi. Bu esa jamoatchilikning katta kontingenti e'tiborini tortadi. Natijada bu mijozlarning, iste'molchilarning kompaniyaga nisbatan ishonchsizligiga olib keladi. Shu sababli ham kompaniyalar sudga murojaat qilishdan qochishadi va nizolarni hal qilishning muqobil institutlarini tanlashadi.

Shunday bo'lsada FinTechda nizolarni hal qilish mexanizmi sifatida sudlar ham ko'zga tashlanadi. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek tomonlarni unga murojaat qilishdan to'sadigan bir necha masalalar bor. Shulardan biri sud jarayonining ko'p vaqt talab qilishi, murakkabligi va qimmatga tushishidir. Ya'ni sudlarda rasmiy sud protsedurasi bo'lib o'tadi, sudya davlat tomonidan yuborilgan uchinchi shaxs sifatida qaror qabul qiladi, har doim huquqiy faktlarga yo'naltirilgan va aybdorlarni topishga harakat qilish diqqat markazida turadi. Mana shu kabi faktlar FinTechda nizolarni hal qilishni boshqa muqobil variantlarini izlashni taqazo etadi.

Bundan tashqari FinTech nizolarini hal qilishda alternative Dispute Resolution yoki inglizcha ADR - an'anaviy sud tizimidan tashqarida nizolarni hal qilish ham samarali uslub sifatida ko'riladi. Mediatsiya ham nizolarni hal qilishning muqobil yo'li hisoblanadi. Mediatsiya bu neytral uchinchi shaxsning nizolashayotgan tomonlarga

o'zaro maqbul yechimga erishishda yordam beradigan jarayoni hisoblanadi. Mediatsiya ixtiyoriy jarayon bo'lib, ko'pincha tomonlar o'z munosabatlarini saqlab qolishni istagan hollarda qo'llaniladi. Ya'ni yuqorida aytganimizdek, hech qaysi taraf o'z mijozini yo'qotishni va mijozlar ham ishonchli sotuvchi, xizmat ko'rsatuvchisini yo'qotishni xohlamaydi. Shuning uchun ham ko'p hollarda FinTech kompaniyalari va tomonlar uchun nizolarni hal qilishning eng maqbul vositalaridan biri sifatida ko'riladi.

Nizolarni FinTechda hal qilishning yana bir opyimal mexanizmi sifatida arbitraj instituti ham ko'riladi. Arbitraj - bu neytral uchinchi shaxs, arbitr nizo bo'yicha majburiy qaror qabul qiladigan rasmiyroq jarayondir. Ya'ni bunda tomonlarning o'zaro kelishuvi asosiy rol o'ynaydi. Tomonlarning kelishuviga ko'ra ixtiyoriy yoki majburiy bo'lishi mumkin. Ya'ni FinTech kompaniya va ssavdogar kesimida yoki tabirkor va iste'molchi kesimida oladigan bo'lsak, ular shartnomaga kiritgan arbitraj izohiga bog'liq bo'ladi. Agar tomonlarning nizolarni hal qilish mexazimi sifatida arbitrajni(arbitration clause) keltirib o'tgan bo'lsalar, nizo kelib chiqqudek bo'lsa, masala ushbu institutda hal qilinadi. Agar bu haqida ommaviy oferta yohud shartnomada keltirilmagan bo'lsa, tomonlar nizolarni arbitrajda hal qilishni kelishishlari mumkin hisoblanadi. Bu esa anchayin tomonlarga vaqtdan yutishga yorsdam beradi hamda tadbirkorlik subyektlarining obro'siga jamoat oldida putur yetishini oldini oladi. Arbitraj ko'pincha tomonlar o'z kelishmovchiligini tez va yakuniy hal qilishni xohlaydigan hollarda qo'llaniladi. Chunki, u nizo kelib chiqqanda tshkil etiladi va qaror ustidan shikoyat qilish instansiyasi bo'lmaydi.

Bundan tashqari tomonlar muzokaralar uslubidan ham foydalanishlari mumkin. Muzokaralar ADRning eng oddiy shakli bo'lib, u tomonlarning o'zlari nizoni to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali hal qilishga urinishlarini o'z ichiga oladi. Muzokaralar norasmiy bo'lishi mumkin va ko'pincha tomonlar oldindan mavjud munosabatlarga ega bo'lgan va bu munosabatlarni saqlab qolishni xohlagan hollarda qo'llaniladi.

To'liq avtomatik kibermodelda biznes nizolarini hal qilish nizolashayotgan tomonlarni kelishuvga erishish orqali avtomatlashtirilgan tizim tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. ODR - bu onlayn texnologiyalar yordamida nizolarni hal qilish jarayoni. ODR tomonlar turli geografik joylarda bo'lgan va shaxsan uchrasha olmaydigan hollarda qo'llanilishi mumkin. Masalan siz Alibaba.comdan yohud Amazomndan mahsulot sotib oldingiz, nizo yuzaga keldi, ammo nizoni ko'rish uchun muhokama markaziga yetib borishingiz muammo. Mana shu holatlarda FinTechda nizolarni hal qilishning mazkur mexanizmidan foydalaniladi. Suddan tashqari kelishuvlar natijasida uchinchi shaxslarni jalb qilmasdan maslahatlashuv va muzokaralar yo'li bilan ham nziolarni hal qilish mumkin. Agar bu harakat muvaffaqiyatli bo'lmasa, nizolashayotgan tomon nizoni hal qilishda yordam berish uchun yuridik ekspertlar, sudyalalar, hakamlar va vositachilar kabi uchinchi shaxsni tayinlashi mumkin.

Hozirgi kunda FinTechda nizolarni hal qilishning yanada yangi va qulay mexanizmlari shakllanmoqda. Chunki FinTechda nizolar turli sohalarda, jumladan,

to'lovlarni qayta ishlash, ma'lumotlarni himoya qilish, firibgarlik va kiberxavfsizlik sohasida ham yuzaga kelishi mumkin. Qo'llaniladigan nizolarni hal qilish mexanizmi nizoning xususiyatiga va tomonlar o'rtasidagi kelishuvga bog'liq bo'ladi. Ko'pgina FinTech kompaniyalari nizolarni tez va samarali hal qilishda yordam berish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish guruhlari yoki onlayn nizolarni hal qilish platformalari kabi o'zlarining nizolarni hal qilish mexanizmlaridan foydalanishadi. Va kundan kunga bu vositalarni faol shakllantirib bormoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, moliyaviy xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda FinTech texnologiyalarini joriy etish davlat moliyaviy operatsiyalarini osonlashtirdi, xizmat ko'rsatish sohasida muayyan funksiyalarni xususiy sektorga olib beradi. Natijada, ham davlat ham, fuqaro uchun ixcham va samarali boshqaruv tizmi yaratiladi. Barcha an'anaviy faoliyatlar raqamli innovatsiyalarga o'tkaziladi. Ushbu yangilik moliyaviy texnologiya (fintech) deb nomlanadi. Ular bir qator sohalarni: to'lov va tranzaksiya jarayonlari, kompaniyalar va korxonalarining ma'lumotlar bazalari xavfsizligini oshirish, kiberxavfsizlik, moliyaviy jarayonlarni internetda boshqarish, xizmat ko'rsatish, savdo, marketing kabilarni qamrab oladi.

Eng qulay tomonlaridan biri- mijozlarga raqamli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish oson, amaliy va hatto intuitiv bo'lishidir. Ular orasida bank, buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, biznes boshqaruvi yoki shaxsiy moliya jarayonlari ham bo'lishi mumkin. Bularni esa individ mobil telefondan turib boshqara oladi. Ba'zi hollarda ularda ham muayyan kamchiliklar kuzatilib turadi. Dastlabki muammo sifatida esa tartibga solish qonuning ko'pchilik davlatlarda yo'qligi va chegara osha moliyaviy munosabatlarni tartibga solishning biroz murakkabligi ko'riladi.

Bundan tashqari, FinTech faoliyatidagi biznes nizolaridagi muammolarni sud jarayoni va suddan tashqari kanallar orqali hal qilish mumkin hisoblanadi. FinTech-dagi nizolarni hal qilish mexanizmlari FinTech kompaniyalari va ularning mijozlari o'rtasidagi nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilishning turli usullariga ishora qiladi. Bu ishoralar shartnomadan yohud ommaviy oferta shartlaridan kelib chiqishi mumkin. Nizolarni hal qilishning ADR vositalari bilan birgalikda hozirgi kunda mijozlarga xizmat ko'rsatish guruhlari yoki onlayn nizolarni hal qilish platformalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa tomonlarning anchayin vaqti va naqtini tejashga, kompaniyaning jamotchilik oldidagi ijobiy reputatsiyasini yo'qolmasligiga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulyamov, Said, and Mokhinur Bakhramova. "Digitalization of International Arbitration and Dispute Resolution by Artificial Intelligence." *World Bulletin of Management and Law* 9 (2022)
Onlayn manzili bu yerda mavjud
: <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/848>
2. Legal Protection for Borrowers and Business Dispute Resolution in Fintech Lending Services
Onlayn manzili bu yerda mavjud
: <https://journals.ums.ac.id/index.php/jurisprudence/article/view/15853>
3. The Evolution Of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? Douglas Arner; János Barberis; Ross Buckley
Onlayn manzili bu yerda mavjud
: <http://www.ssrn.com/link/UNSW-LEG.html>
4. FINTECH IN INDIA – OPPORTUNITIES AND CHALLENGES. Dr. C. Vijai
Onlayn manzili bu yerda mavjud
: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=3354094
5. Legal Protection for Borrowers and Business Dispute Resolution in Fintech Lending Services. Lu Sudirman
Onlayn manzili bu yerda mavjud
: <http://journals.ums.ac.id/index.php/jurisprudence>
6. FINTECH LAW В СТРУКТУРЕ ФИНАНСОВОГО ПРАВА
7. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ТУШУНЧАСИНИНГ МОҲИАТИ БЎЙИЧА ИЛМИЙ ЁНДАШУВЛАР ТАҲЛИЛИ.
Onlayn manzili bu yerda mavjud: Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич
<https://cyberleninka.ru/article/n/ra-amli-i-tisodiyot-tushunchasining-mo-iyati-b-yicha-ilmiy-yondashuvlar-ta-lili/cove>